

PEDOGOGIK KASBIY KO‘NIKMALAR RIVOJI VA KREATIV FIKRLASHDA INTERAKTIV TA’LIM METODLARINING AHAMIYATI

Xudayorova Zebuniso Otanazarovna

QK xizmatchisi, Quruqlikdagi Qo‘shinlar instituti Milliy iftixor va harbiy
vatanparvarlik kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, global dunyoda raqobatning ortishi sharoitida har bir davlat va jamiyatning rivoji mohir pedagoglar faoliyati bilan bog‘liqligi yoritiladi.

Pedagogik mahorat va pedagogik kasbiy ko‘nikmalarning ta’lim jarayonidagi har bir yoshning intellektual rivoji hamda ularning iste’dodi va qobiliyatlarini to‘liq amalga oshirishga e’tibor berishga bog‘liq ekanligi ham tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar

Metod, kasbiy ko‘nikma, pedagogik mahorat, kreativ fikrlash, “Yangi pedagogik texnologiyalar”, “Innovatsion uslublar”, “Interaktiv metodlar”, didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, avtoritar qobiliyat, perseptiv qobiliyat va nutq qobiliyati.

DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL PROFESSIONAL SKILLS AND THE IMPORTANCE OF INTERACTIVE TEACHING METHODS IN CREATIVE THINKING

Xudayorova Zebuniso Otanazarovna

Servicemember of the Armed Forces, Senior Lecturer at the Department of
National Pride and Military Patriotism, Institute of Ground Forces.

Abstarct

This article highlights the connection between the development of each country and society, in the context of the rapid development of science and technology, and increased competition in the global world, and the activities of skilled educators.

It was also analyzed that pedagogical skills and pedagogical professional skills depend on the intellectual development of each young person in the educational process and the focus on the full realization of their talents and abilities.

Keywords

Method, professional skills, pedagogical skills, creative thinking, “New pedagogical technologies”, “Innovative methods”, “Interactive methods”, didactic skills, academic skills, authoritarian skills, perceptive skills and speaking skills.

Bugungi ta’lim tizimida darslarni samarali tashkil qilish nafaqat o’qituvchiga balki o’quvchilarga ham bog’liqdir. O’quvchilar faol, harakatchan va kreativ bo’lsalar shu darslar samarali natija beradi. Kreativ fikrlash bu g’oyalar berishdan ham kattaroq narsadir.

Ta’lim jarayonida “Yangi pedagogik texnologiyalar”, “Innovatsion uslublar”, “Interaktiv metodlar” kabi atamalarning lug’atimizga kirib kelganligi va ulardan keng foydalanish davr taqozosiga aylanganligi ko’pchilikka sir emas. Biz quyida ta’limning barcha sohalariga kirib kelgan interaktiv metodlar haqida so’z yuritmoqchiman.

Ko’pgina metodik innovatsiyalar ta’limning interaktiv metodlari bilan bog’liq bo’lmoqda.

“Интерактив” so‘zi ingliz tilidagi “Интеракт” so‘zidan olingan bo‘lib, “Интер”- birgalikda, o‘zaro, “акт”- harakat ma’nosini bildiradi, ya’ni o‘zaro birgalikdagi harakat, faoliyat yoki suhbat, dialog tartibida bo‘lishni (masalan, o‘quvchi-o‘qituvchi, o‘quvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-kompyuter) ifodalaydi. Интерактив ta’lim metodi, bu-dialogik ta’lim bo‘lib, u o‘quvchi va o‘qituvchi yoki o‘quvchi va kompyuter o‘rtasidagi o‘zaro birgalikdagi faoliyat jarayonini ko‘zda tutadi.

Интерактив o‘qitish metodini qo‘llash jarayonida o‘quvchilarning barchasi bilish jarayonida faol qatnashadilar, ular o‘zlari bilgan, esga tushirgan, o‘ylagan ma’lumotlariga tayanishlari, ulardan bilish jarayonida foydalanishlari mumkinligini tushunadilar va shunga moslashadilar. Birgalikdagi aqliy bilish, izlanish faoliyatida har bir o‘quvchi shaxsan ishtirok etib, unga o‘z hissasini qo‘shadi. Bilimlari, g‘oyalari, qarashlari, nuqtai nazarlari, faoliyat ko‘rsatish usullari bilan o‘quvchilar o‘zaro fikr, tajriba almashadilar. O‘zaro fikrlashish, tajriba almashish jarayoni samimiy, sidqidildan o‘zaro qo‘llab-quvvatlashdek iliq ruhiy iqlimda bo‘lib o‘tsa, bu holat nafaqat yangi bilim olishni ta’minlaydi, balki bilish faoliyatini oshiradi, faollashtiradi, ularni bilish jarayonidagi hamkorligini mustahkamlaydi

Интерактив metodlar o‘quvchilarning bilish jarayoniga faol ishtirok etishlarini ta’minlaydi, ularni mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muloqot qilishga o‘rgatadi. Bu jarayon bo‘lajak tarbiyachilarning o‘z kasbiga nisbatan mas’uliyatini oshiradi va ularni pedagogik faoliyatga tayyorlaydi.

Shu bilan birga, интерактив metodlar orqali tarbiyachilar kommunikativ, reflektiv, tashkiliy va ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Интерактив metodlardan samarali foydalanish nafaqat bilim olish jarayonini yengillashtiradi, balki o‘quvchilarda mustahkam bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Bugungi kunda pedagogika yo`nalishida olib borilgan tadqiqotlar va ilmiy yondoshuvlar pedagogik mahorat o`qituvchining kasbiy faoliyatidagi eng

zaruriy bo'lgan qobiliyatlardan ekanligini ta'kidlab, asoslamoqda. Pedagogik mahorat kasbiy faoliyatdagi induviduallikning yorqin ko'rinishi sifatida tushuniladi chunki xar bir pedagogning mahorati boshqa pedagognikidan tubdan farqlanadi.

Hozirgi zamon pedagog shaxsi uchun eng muhim asos- xar taraflama rivojlanganlikdir. Pedagog juda yuksak darajadagi madaniyatga ega bo'lgan shaxs sifatida o'zi o'tadigan fan sohasidagi yutuqlardan, yangiliklardan xabardor bo'lish bilan birga bilimlarni yetkazib berish mahoratiga ham ega bo'lishi shart. Pedagogik mahorat arab tilidan tarjima qilinganda "mohirlik", "ustalik", "epchillik" degan ma'nolarni bildirib kasbiy faoliyatni ustalik, mohirlik bilan, san'atkorona tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko'nikma va malakalar majmui xisoblanadi.

Pedagogik mahorat – tug'ma yoki nasldan–naslga o'tuvchi xususiyat emas, balki izlanish, ijodiy mehnat mahsulidir. Ko'p qirrali pedagogik faoliyat zamirida ijodiy mehnat yotadi. Agar pedagogning kasbiy rivojlanganlik dasturiga qaralsa, u holda birinchi o'ringa uning integral sifati –mahoratidan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin. Pedagogik keng qamrovli tushuncha bo'lib, o'qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatlarini tahlilliy o'rganish natijasida pedagogik mahoratga berilgan ta'riflar shuncha ko'p bo'lishiga qaramay, ularda mahoratning qaysidir jihatlari ifodalanadi.

Mashhur o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy o'z asarlarida o'qituvchi shaxsi va uning faoliyati borasidagi qarashlarni ifodalashga alohida to'xtalib o'tib bolaning sog'lom bo'lib o'sishida ota-onalar o'ziga xos rol o'ynasalar, uning fikriy jihatdan taraqqiy etishida o'qituvchining o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlaydi. Xususan, «fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog'liqdur»[2] - deydi.

Buyuk pedagog olim Yan Amos Komenskiy o'z davrida o'qituvchining bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi roli katta deb xisoblaydi, uning fikricha, pedagog o'z burchlarini chuqur anglay olishi hamda o'z qadr-qimmatini to'la

baholay bilishi zarur. Ya.A.Komenskiy o'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlarining namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqligiga urg'u beradi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'z ishini sevuvchi, o'quvchilarga otalaridek muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg'otuvchi, o'quvchilarni o'z ortidan ergashtiruvchi.

K.D.Ushinskiy o'qituvchi ma'naviyati va kasbiy faoliyatiga yuqori baho beradi hamda ularning kasbiy malakalarini doimiy ravishda takomilashtirib borish maqsadga muvofiq ekanligi to'g'risidagi fikrni ilgari suradi. Mazkur g'oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi tizim – o'qituvchilarni tayyorlovchi tizimni ilk bor asoslaydi.

Pedagogning kasbiy mahorati – bu ma'lum shaxsiy (xayrixoxlik, tushunish, hamdard bo'lish) va kasbiy (bilimdonligi, javobgarlikni his qilishi, ijodkorligi eruditsiyasi, kommunikativligi, tashkilotchiligi va h.k.) fazilatlarining yig'indisi hisoblanib, u pedagogik-psixologik tayyorgarligida, talabalarga ta'lim va tarbiya berishning optimal yo'llarini izlab topishida namoyon bo'ladi.

Pedagogning kasbiy kompetentligi keng doirada o'rganilib, egallashi zarur bo'lgan qobiliyatlari ham bir nechtani tashkil etadi. Masalan:

Didaktik qobiliyat- bu talabalarga o'quv materialini aniq va ravshan tushuntirib, oson qilib yetkazib berish, talabalarda fanga qiziqish uyg'otib ularda mustaqil faol fikirlashni rivojlantira oladigan qobiliyatdir. Didaktik qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi zarurat tug'ulganda qiyin materialni osonroq murakkabrog'ini soddaroq, tushunish qiyin bo'lganini tushunarliroq qilib talabalarga yetkazib bera oladi.

Akademik qobiliyat - bu o'qituvchining o'zi o'qitadigan fani shuningdek boshqa fanlardan ham chuqur va keng bilimlarga ega bo'lish qobiliyatidir. Ko'pchilik tajribali pedagoglarning aytishlaricha o'qituvchi o'z fani bo'yicha bunday yuksak bilim saviyasiga erishishi, boshqalarni qoyil qilib hayratda qoldirishi, o'quvchilarda katta qiziqish uyg'ota olishi uchun yuksak madaniyatli har tomonlama mazmunli keng dunyoqarashli odam bolmog'i zarur.

Perseptiv qobiliyat- bu psixologik kuzatuvchanlik, o'quvchi shaxsining individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan xolda yondashish, o'qituvchining vaqtinchalik psixik xolatlarini tushuna bilishdan iborat qobiliyatdir.

Nutq qobiliyati- O'qituvchining o'z his tuyg'ularini nutq yordamida, shu bilan birgalikda mimika va pantamimika yordamida aniq va ravshan qilib ifodalab berish qobiliyatidir. Bu o'qituvchilik kasbidagi muhim xislatlardan biri hisoblanadi. Chunki o'qituvchidan o'quvchilarga uzatiladigan axborot asosan ikkinchi signal tizimi – nutq orqali beriladi. O'qituvchining nutqi, talaffuzi aniq – ravshan, oddiy va o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi kerak. Qobiliyatli o'qituvchining nutqi ifodali, emotsiyaga boy bo'lib, bunda stilistik va gramatik xatolar bolmasligi lozim. Bir xil oxangdagi nutq o'quvchilarni juda tez toliqtiradi. Shuning uchun auditoriyaga moslab o'qituvchi o'z nutqini kuchli yoki pastroq qilib o'zgartirib turishi kerak.

Tashkilotchilik qobiliyati – bu dars jarayonini va darsdan tashqari faoliyatlarni tashkil eta bilish o'quvchilar jamoasini uyushtira bilish shuningdek o'z shaxsiy ishlarini to'g'ri tashkil qila olish qobiliyatidir. Aytaylik darsning 10,20,30, daqiqalari davomida mabodo, ko'zda tutilmagan vaqt ortib qolgan taqdirda foydalanish uchun qanday qo'shimcha materiallarni tayyorlash yoki yetmay qolganda qanday materialni keyingi darsga qoldirish mumkinligi haqida bilishimiz kerak.

Avtoritar qobiliyat – bu o'quvchilarga bevosita emotsional-irodaviy ta'sir etib ular o'rtasida obro' ortira olishdan iborat qobiliyatdir. Avtoritar qobiliyat o'qituvchining rostgo'yligi, irodaviy uddaburonligi, o'zini tuta bilishi, farosatliligi, talabchanligi kabi hislatlar bilan bog'liqdir.

Mashhur rus pedagogi A.S. Makarenko “Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, xazillashishni, quvnoq, jahldor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati tarbiyalasin”, degan edi.

Xulosa shuki, o‘z kasbining mohir ustozini bo‘lish uchun faqatgina mavjud nazariyalarga tayanib ish tutish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Buning uchun muntazam ravishda pedagogik fikrlash, pedagogik o‘ylash, pedagogik ish tutish lozim bo‘ladi. Bu deganimiz, o‘z faoliyatini pedagogik hodisalarni, vaziyatlarni tahlil qilish, ularning har bir bog‘lanish joylarini anglashga intilish, kunlik natijalarni mustaqil ravishda tahlil qilishi va yangi ta‘lim-tarbiyaga doir g‘oyalarni avvalgilari bilan taqqoslay olishga odatlanishi ham lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu nasr farobiy —Fozil odamlar shaxrill tarjimonlar Abdusodiq Irisov, Mahkam Mahmudov, Urfon Otajon. Mas‘ul muharrirlar M.Xayrullaev, M.Jakbarov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 320 b.

2. Sh. Ismoiljonov “Ta‘lim jarayonida tanqidiy fikrlashning rivojlanishi va uning ahamiyati” “YANGI O‘ZBEKISTONNING UMIDLI YOSHLARI” 3(1)-SON, 87-95-bet.

3. D.R.Garrison, H.Kanuka; Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education, The Internet and Higher Education, Volume 7, Issue 2, 2nd Quarter 2004, Pages 95-

4. Azizxodjaeva N.N. O‘qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – T., 2000.

5. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob/ Met.qo‘ll.U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inog‘omova. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012

6. Mahkamov U, Tillaboeva N, Tillaboeva SH. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. T.: 2003 y

7. Уринова Ф.У. (2020). Didactic games in preschool educational system. Проблемы современной науки и образования, (4-2 (149)), 27-29.

8. Yusupova K. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies Hosted online from Paris, France. Date: 19th December,

9. Komiljanova H. Pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o‘qituvchi faoliyatidagi o‘rni va ahamiyati , Educational Research in Universal Sciences. volume 2 | special issue 6 | 2023

10. F. Xalilova “Pedagogik jarayonlarda interaktiv metodlarni qo‘llash va uning bo‘lajak tarbiyachilarga ta’siri” JOURNAL OF IQRO – ЖУРНАЛ ИҚРО – IQRO JURNALI – volume 14, issue 02, 2025, Pages:956-959.